

HAR TOMONLAMA FOYDALI TANDEM



Ma'lumki,
2018 yil
14 iyulda
O'zbekiston
Respublikasi
Prezidentining
"Ilmiy va
ilmiy-texnikaviy
faoliyat natijalarini
tijoratlashirish
samaradorligini
oshirish

bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu tijoratlashtirishning asosiy usulluridan biri, bu tijorat tashkilotlarini tashkil etish, bunda ularning ta'sischilaridan biri ustav fondiga hissa sifatida intellektual mulk ob'ekti yoki tayyor texnologiyani kiritgan muassasa hisoblanadi. Mazkur yo'nalish bo'yicha Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi tomonidan samarali faoliyat olib borilmoqda.

Masalan, joriy yilning 16 sentyabr kuni "Zarafshon Golden Group" MChJ bilan Bo'lim o'rtasida ilmiy-ishlab chiqarish, tadqiqot, tadbirkorlik hamda o'quv metodik yo'nalishlardagi hamkorlik memorandumi imzolandi. Ushbu jamiyat muvaffaqiyatli tadbirkorlik sub'ekti bo'lib, Navoiy viloyatida ko'p xonalik xonadonlar ham qurib kelmoqda.

Shuning uchun ham Navoiy bo'limining patentlari mavjud bo'lgan kvarts qumlarini pulsatsion kolonnalar yordamida boyitish hamda vakuum sharoitida fosfogips qurilish materiallarini ishlab chiqarish mavzularida innovatsion ishlanmalariga "Zarafshon Golden Group" MChJ katta qiziqish bildirdi. Xozirgi kunda mazkur jamiyat bilan kelishuvlar imzolash haqida muzokaralar olib borilmoqda.

Bundan tashqari, Navoiy bo'limning raisi A.Mirzaev 17-19 iyul kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga tashrifi chog'ida olib borilgan konstruktiv muzokaralar natijasida "Tianye" Xitoy suv tejash kompaniyasi tomonidan yaqinda ikkita taklif yuborilgani maqsadga muvofiq bo'ldi. Ushbu takliflar Bo'lim bilan Navoiy viloyatida 350 hektar maydonda "aqilli" qishloq xo'jaligi parkini hamda tomchilab sug'orish ishlab chiqarish liniyasini barpo etish kabi loyixalarni o'z ichiga olgan. Mazkur kompaniya vakillari loyihalarni ikki tomonlama muhokamalarda ShHTda a'zo davlatlar Hukumat rahbarlari navbatdagi yig'ilishi zamirida taqdimot qilmoqchilar.

Avval xabar berganimizdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademiklari, yetakchi olimlardan tashkil topgan delegatsiya joriy yilning 5-9 sentyabr kunlari Qirg'izistonda ikki davlat Fanlar akademiyasi hamkorligida tashkil etilgan Xalqaro ilmiy-amaliy seminarda ishtiroy etdilar. Seminar ishtirokchilari Qirg'iziston Respublikasining "Social Tree" jamoa birlashmasi kompaniyasining pavlovniya plantatsiyasiga tashrif buyurishdi hamda Nurota tumanida ham ushbu pavlovniya o'simligina yetishtirish plantatsiyasini tashkil etish haqida kelishildi.

Joriy 16 sentyabrida esa "Social Tree" kompaniyasidan Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi raisi A.Mirzaevga nomiga 19-23 sentyabr kunlari Bishkek shahriga yuqorida aytilgan masala bo'yicha tashrif buyurishi uchun

taklif keldi.

Fanlar akademiyasi Navoiy bo'limi ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi jarayonini jadallashtirish yo'lida har tomonlama foydali hamkorlikka tayyor. Yuqorida aytilganlar buning yorqin isboti.